

IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY MENEJER BOSHQARUVI

Xasanova Sitora Islamovna

Buxoro davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi

Kamolov Karimbek

BuxDU Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Menejer, Professional, Product, Price, Place, Promotion, Menejer-innovator, diplomat, tadbirkor, miqdoriy yondashuv, tizimli yondashuv, funksional yondashuv, vaziyatli yondashuv.

Annotatsiya

Hozirgi zamon menejerlari ko'p hollarda o'zlari tanlagan texnologiyalarni va bu texnologiyalar bilan ishlovchilarning faoliyatlarini o'rgangan. Yangi texnologiyalar faqat tashvish va ortiqcha vaqtni olishiga qat'iy ishonchda bo'lgan tartibni qabul qilgan va bu tartibdan yangi bir tartibga o'tishni xoxlashmaydi. Bu usul bo'lishi ham to'g'ri mumkin. Lekin ijtimoiy-iqtisodiy sohaning barcha yo'nalishlaridagi ilg'or tajribalar va yangi texnologiyalar menejer yoki tashkilot rahbarining qanchalik ishbilarmonligidan, hohishi-e'tiboridan qat'iy nazar raqobatni keltirib chiqarmoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Kirish

Hozirgi vaqtda tez rivojlanishni mo'ljallagan zamonaviy tashkilotlar uchun, innovatsiyani samarali joriy qilish, biznes rentabelligining ko'plab savollarini yechish bilan bog'liq hisoblanadi. Bu sohadagi yutuqlarga erishishning eng qulay yo'li tashkilot rahbarining uzluksiz istiqbolga erishish rejalarini amalga oshirish sharoitlarini ta'minlab berishi hisoblanadi. Ushbu ishlar bilan aynan tashkilot menejeri shug'ullanadi. Ilm-fan va ishlab chiqarishning innovatsiyaga aylanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida boshqaruvning har qanday turi yoki tipidagi menejerlar, menejer novatorlarga aylanishini zamonamiz talab qilmoqda. Chunki kechagi yangi texnologiya o'z muddatini o'tamasdanoq bugunning eskisi hisoblanmoqda. Boshqaruvda marketing talablarining ham kuchayib borishi tashkilotlarda raqobatning ham kuchayishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai-nazardan zamonaviy boshqaruvchiga bo'lgan talab faqat dinamik xususiyatlarga ega bo'lib boradi.

Bu yo'nalishda Yevropa davlatlari, AQSH, Xitoy, Kanada, Yaponiya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari oldinda bormoqda.

Muhokama va natijalar

Biz hozirgi xaridorlar va iste'molchilar-ning yangi mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talablari ham keskinlashgan, o'zgaruvchan zamonda yashamoqdamiz. Hatto, juda ko'p yillar davomida o'ziga ma'qul bo'lgan, faqat aynan shu tashkilotlarning mahsulotlari va xizmatlariga o'rgangan va xarid qilgan iste'molchilar ham, birinchi navbatda yangi mahsulot va xizmatlarni xarid qilmoqdalar.

Bu vaziyatda moddiy va nomoddiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar rahbari yoki menejerlar albatta o'zlari kutmagan raqobatga duch kelmoqdalar. Menejer novator(yangi g'oyalar, yangi

texnologiyalar bilan ishlovchi boshliq, rahbar) bir texnologiyaga va shu texnologiya- ning ishlab chiqarish sharoitlariga o'rgangan va bu texnologiyadan ajralgisi kelmagan ishchilarini yangi texnologiyalar tizimiga o'tishning afzalliklari va samaradorligiga ishontrishning uddasidan chiquvchi, ijodiy fikrlovchi, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan, axborotlaridan yaxshi xabardor, tashkilotchi va tashabbuskor rahbardir.

Menejer va rahbarlik uslubi: Boshqaruv funksiyalarni bajarishda va jamoat ishlab chiqarishda zamonaviy menejer sifatleri.

1. Rahbar diplomat.
2. Rahbar boshqaruvchi.
3. Rahbar murabbiy.
4. Rahbar innovator.
5. Rahbar inson.
6. Rahbar tadbirkor.

Salohiyatli innovatsion menejering dunyoqarashi va fikrlashi standartsiz, qolipsiz bo'lishi, ular boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda hatto kam sonli bo'lsa ham o'zlarining haq ekanligini ilmiy-texnika yutuqlariga, zamonaviy boshqaruv usullariga asoslanib isbotlab beradilar va g'olib bo'ladilar. Novatorlar o'zlarida qat'iy ishonch bo'lishi uchun doimo izlanishda bo'ladilar. Mutaxassisligi yoki ixtisosligidan tashqari Jahon taraqqiyotidagi yangi texnologiyalar bilan tanishib boradi. Menejer novatorlar murakkab muammolarga duch kelishini va bu vaziyatlardan chiqilmasa «chet»da qolib ketishini juda yaxshi anglab olgan. Shuningdek, ular o'zlarining tashkilot yoki korxonada taqdiridagi o'rnini, mavqe'ini ham yaxshi anglab olgan.

Zamonaviy menejmentda boshqaruvga turli yondashuv.

1. **Tizimli yondashuv** – tashkilotning ichki muhitiga (iqtisodiy, ilmiy- texnikaviy, ijtimoiy, siyosiy), e'tibor beradi.
2. **Miqdoriy yondashuv**- operatsion tamoyillarga , qaror qabul qilish nazariyasi tamoyillariga e'tibor qaratadi.
3. **Funksional yondashuv**- boshqaruvga tashkiliy mexanizmlarni keng oqilona yo'llarini ishlab chiqishda ma'lum funksiyalarni, ya'ni rejalashtirish, tashkillashyirish, nazorat qilish, rahbarlik qilish kabilarni o'z ichiga oladi.
4. **Vaziyatli yondashuv** – boshqaruvchi ob'yektining muayyan sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatga qarab boshqaruvning ma'qul usuli qo'llaniladi.

Shunday qilib, har bir mutaxassisni, zamonaviy menejerni har taraflama baholash va tanlashning quyidagi to'rtta talablari asosida amalga oshirilishi to'g'ri deb topilmoqda:

1. **Professional tayyorligi.**
2. **Psixologik sifatleri.**
3. **Umumiy madaniy darajalari.**
4. **Umumiy ilmiy darajalari.**

Professional tayyorligi. Bu guruhga kiruvchilar uchun asosiy talab bilimlarni egallash hisoblanadi. Menejering novator bo'lishligi uchun u o'rganishi talab qilinadigan fanlarning xili ko'p. Bu fanlarni marketing elementlariga muvofiqlashgan holatlarda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. **Product** (mahsulot siyosati va mahsulotni ishlab chiqarish) – texnik fanlar, ishlab chiqarish texnologiyasi, huquqshunoslik va korxonaning iqtisodiyoti.
2. **Price** (baho siyosati va samarali baho tashkillanishining nazorati) – makro va mikroiqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, oliy matematika, statistika, moliyalar va kredit), soliq huquqi, buxgalteriya hisobi.
3. **Place** (bozor ulushini egallashdagi samaradorligi) – muzokaralarni olib borish texnikasi, merchendayzing.
4. **Promotion** (sotuv tizimining samaradorligi) – sotsiologiya, psixologiya, nisbiylik nazariyasi va statistika. Albatta, ko'rsatilgan bu fanlarni mukammallik darajalarida o'rganish juda murakkab, lekin menejer ularni yetarli darajalarda o'rganishi va etishmayotgan bilimlarni o'rganishni davom ettirishi kerak.

1. Menejer–innovatorning asosiy professional sifatlarini quyidagilar bilan ta'riflash mumkin:

1. Ishda axborotlar bilan ishlashga qiziquvchanligi.
 2. Mantiqiy qobiliyatini rivojlantirishi.
 3. E'tibor va diqqatlarni to'plashga qodirligi.
 4. Nutq qobiliyatini rivojlantirishi.
 5. Matematikani bilish qobiliyatini rivojlantirishi.
 6. Ishdagi muloqotlar sohasiga moyilliligi.
 7. Innovatsiya tadqiqotlarida faolliligi.
 8. Shaxsiy o'sishga doimiy intilishi.
 9. Faol hayotini, aholining faravon, iqtisodiy-ijtimoiy xolatini yaxshilashga yo'naltirishga intilishi.
2. **Psixologik sifatleri.** Menejer-innovator do'stona munosabatlar, ijtimoiy ishonchlilik, optimizm, tabiatsevarlik, muloqotlarda topqirlilik va aqllilik, hissiyot va sezgi-larini bildirishda samimiyatlik kabi jamlagan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lishi talab qilinadi.

3. Uning ijtimoiy-psixologik yetishganligi quyidagilarda ma'lum bo'ladi:

1. O'zining odob-axloqi va bahosini namoyish etishda doimo egiluvchanlik tendentsiyalarini namoyish qilishi.
2. O'zgaruvchan vaziyatlarni tezlikda anglab olishi;
3. O'z-o'zidan yoki ichki sabablar natijasida kelib chiqqan fikr-mulohazalarini rivojlantirishi;
4. Tabiiylik va oddiylik;
5. O'zini qabul qilishining yuqori darajadali;
6. Odamlar bilan muloqotlarda o'rinli va egiluvchanlik darajasi yuqoriligi;
7. Ijodga moyilligi;

Shuningdek, menejer–innovator stressga barqarorligi va o'zining fikrlari, mulohazalarini faqat faktlarga asoslanib keltirishi bilan ajralib turishi lozim.

4. Umumiy ilmiy darajasi.

Menejer-innovator o'rganishi va bilishi kerak bo'lgan muhim va asosiy fanlarning o'rnini ko'rib chiqish mumkin:

1. **Falsafa:** bu fanni o'zlashtirishdan olingan bilimlar voqe'lik va hodisalarni har tomonlama ko'rib chiqish, tahlil qilish imkoniyatlarini, sabab va oqibatlarining uzviyligini anglashni, mukammal

tahlillar o'tkazishda fikrlash qobi-liyatini oshiradi va mustahkamlaydi.

2. **Sotsiologiya:** bu fan yordamida menejer jamiyatdagi, ayniqsa tashkilotdagi personalning talab va ehtiyojlarini yengil aniqlaydi, bu sohadagi yangilikka e'tibor qaratadi.
3. **Iqtisodiyot:** bu fanni o'zlashtirish orqali menejer o'z tashkilotining bozor raqobatlariga chidamliligi darajalarini va bozorda barqaror turish, bozordagi ulushini barqarorlashtirish rejalarini ishlab chiqadi.
4. **Psixologiya:** odamlar bilan muloqot qilishning eng maqbul variantlarini, xodimlarning motivlarini oldindan bilib olishga yordam beradi.
5. **Tarix:** xatolarga yo'l qo'ymaslikni o'rganadi, ixtirolarning mazmunini bilishning zaruratini anglaydi.
6. **Statistika:** tashkilotning samarali faoliyatiga u yoki bu yangilikning ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi.
7. **San'at:** bu o'rinda "menejment-boshqaruv san'ati" iborasini keltirsak, bu fanning menejer uchun qanchalik kerakligi albatta hammaga tushunarli bo'ladi. Bu fan yordamida menejer ijodga qiziqadi, o'zining ziyoliligi darajalarini oshiradi.

Keltirilgan ro'yxatlar menejer o'rganishi va o'zlashtirishi kerak bo'lgan fanlar bilan chegaralanmaydi. U juda ko'p fanlarni o'rganib va o'zlashtirib o'zining bilimi, madaniyati, komilligi va dunyoqarashlarini doimo kengaytirib borishi lozim.

Zamonaviy menejerga talablar. Vaqt o'tgan sari tashkilotlar, korxonalarining tiplari va turlari ko'payib boradi. Shu holatga bog'liq menejerlar ham oldindagi o'zgarishlar va yangi talablarga doimo tayyor turishlari kerak. Jahon menejmentining tajribalaridan ma'lumki, professional menejmentni va professional personalni intensiv ravishda tayyorlab borish doimiy o'zgarib turadigan ichki va tashqi muhit sharoitlarida kompaniyaning yashab qolishini ta'minlaydi. Bu masala O'zbekiston sharoitida hali to'lig'icha hal qilinmagan.

Professional menejerlarni tayyorlamaslik har qanday tashkilotning o'z-o'zini boshqarish rejimiga va istiqbolli taraqqiyotga o'tishini sekinlashtiradi. Shuning uchun ham jahonning ko'p davlatlarida professional menejer oldiga ko'plab talablarni qo'yishadi.

Hozirgi zamon malakali menejer quyidagilarni uddalashi va bajarishi lozim:

1. Ko'p sonli xodimlarni boshqara olishi.
2. Maqsadga erishishning usullari va vositalari, resurslari, vaqtlarini aniq belgilab, biznes-rejalashtirishni amalga oshirishi.
3. Bo'ysunuvchilar oldiga vazifalarni qo'ya bilishi, ularni samarali ishlashga chorlash motivlarini yaratishi.
4. Bo'ysunuvchilarning mas'uliyati chegaralarini va kompetentligini aniqlab, resurslar bilan ta'minlab faoliyatlarini tashkil qilish.
5. Doimiy ravishda katta hajmlardagi axborotlarga ega bo'lish.
6. Zamonaviy texnologiyalardan foydalana bilishi va turli yo'nalishlardagi innovatsiyalarni o'rganib borishi.
7. Bo'ysunuvchilarning rivojlanishini va o'z-o'zini rivojlantirishi bilan maqsadli shug'ullanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мальцева С. В. Инновационный менеджмент. — М.: Юрайт. 2023. 518 с.

2. Мардас А. Н., Гуляева О. А. Теория менеджмента. — М.: Юрайт. 2024. 294 с.
3. Shoimardonkulovich, Y. D., Kadirovna, S. N., & Javohir, D. (2024). The Green Economy as a Factor of Sustainable Development. *Miasto Przyszłości*, 47, 133-135.
4. Sherov, A. U., & Sharapova, N. K. (2022). The impact and importance of natural resources on economic growth.
5. Igamova, S. (2021). The Role Of The State In The Innovative Development Of Industrial Enterprises. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 8(8).
6. Qayimova, Z. (2023). ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
7. Turdiyeva, M. (2021). Корхона ходимларининг инновацион фаолиятини мотивациялаш орқали рақобатбардошликни таъминлаш омиллари. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
8. Kadirovna, S. N. (2024). Importance of Foreign Experience for Uzbekistan in the Transition to a Green Economy. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(4), 48-51.
9. Junaydulloyevich, A. A., Furqatovna, O. N., & Baxtiyorovich, A. B. (2021, March). Training highly qualified staff in development of uzbekistan. In *E-Conference Globe* (pp. 288-292).